

“HERIRUD FARYODI” ROMANI: O‘ZBEK ADABIYOTIDA AFG‘ON URUSHI MOTIVINING BADIY TALQINI

Dilshodbek Sharipov,

Tayanch doktorant

Namangan davlat universiteti

dilshodbeksharipov93@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotida Afg‘on urushi mavzusining yoritilishi, xususan, yozuvchi G‘afur Po‘latovning “Herirud faryodi” romanining badiiy xususiyatlari, sujet tuzilishi hamda konfliktlar tahlil qilinadi. Asarning o‘ziga xos jihati shundaki, muallif voqealarni bevosita urush ishtirokchisi sifatida, real holatlar asosida bayon etgan. Roman real geografik joylashuv, harbiy qismlar va voqealar asosida yaratilgan bo‘lib, urushning ichki va tashqi ko‘rinishlarini badiiy ifoda bilan ochib beradi. Tadqiqotda adabiyotshunoslik nazariyasiga tayangan holda, asarning syujet turlari (xronikal, retrospektiv, assotsiativ) hamda obrazlar tizimi tahlil qilinadi. Shuningdek, uch xil konflikt turi – xarakterlararo, muhit va qahramon o‘rtasidagi hamda ichki (psixologik) ziddiyatlar orqali asarning ma’naviy-estetik yuklamasi yoritiladi. Ushbu maqola orqali G‘afur Po‘latov ijodining o‘ziga xosligi va Afg‘on urushi haqidagi badiiy talqinlar qamrovi ochib beriladi

Kalit so‘zlar. Afg‘on urushi, o‘zbek adabiyoti, G‘afur Po‘latov, “Herirud faryodi”, harbiy-dala romani, sujet turlari, retrospektiv sujet, konflikt, psixologik ziddiyat, obrazlar tizimi, realistik tasvir

“THE WAIL OF HERIRUD”: A LITERARY INTERPRETATION OF THE AFGHAN WAR THEME IN UZBEK LITERATURE

Dilshodbek Sharipov,

PhD Researcher

Namangan State University

Abstrac. *This article explores the depiction of the Afghan war theme in Uzbek literature, with a particular focus on the artistic features, plot structure, and conflicts in G‘afur Po‘latov’s novel Herirud’s wail. A distinctive aspect of the work lies in the author’s narration of events based on real-life experiences as a direct participant in the war. The novel is grounded in actual geographic locations, military units, and historical events, and artistically presents both the external and internal dimensions of war. Relying on literary theory, the study analyzes the types of plot structures (chronological, retrospective, associative) and the system of characters within the novel. Furthermore, the article examines three types of conflict—interpersonal, environmental, and internal (psychological)—to uncover the spiritual and aesthetic weight of the work. Through this analysis, the article highlights the uniqueness of G‘afur Po‘latov’s creative approach and the breadth of artistic interpretation surrounding the Afghan war in Uzbek literature.*

Keywords: *Afghan War, Uzbek literature, G‘afur Polatov, The wail of Herirud, military field novel, plot types, retrospective plot, conflict, psychological tension, system of characters, realistic depiction*

РОМАН “СТОН ГЕРИРУДА”: ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ МОТИВА АФГАНСКОЙ ВОЙНЫ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Дилшодбек Шарипов

Докторант базовой докторантуры

Наманганский государственный университет

dilshodbeksharipov93@gmail.com

Аннотация. В данной статье рассматривается изображение темы афганской войны в узбекской литературе, с особым акцентом на художественные особенности, структуру сюжета и конфликты в романе Гафура Полатова “Стон Герируда”. Отличительной чертой произведения является повествование автора, основанное на реальных переживаниях, так как он был непосредственным участником войны. Роман основан на реальных географических местах, военных частях и исторических событиях, а также художественно представляет как внешнюю, так и внутреннюю стороны войны. Основываясь на литературной теории, в исследовании анализируются типы структуры сюжета (хронологический, ретроспективный, ассоциативный) и система персонажей романа. Кроме того, в статье рассматриваются три типа конфликта — межличностный, экологический и внутренний (психологический), чтобы выявить духовную и эстетическую нагрузку произведения. Через данный анализ подчеркивается уникальность творческого подхода Гафура Полатова и широта художественного осмысления афганской войны в узбекской литературе.

Ключевые слова: Афганская война, узбекская литература, Гафар Полатов, “Стон Герируда”, военный роман, типы сюжетов, ретроспективный сюжет, конфликт, психологическое напряжение, система персонажей, реалистическое изображение.

Kirish

O‘tgan asrning 80-yillarida nafaqat qit’amizni balki butun dunyoni larzaga slogan mudhish voqea yuz berdi. Garchi bu 90-yillar boshida rasman yakunlangan bo‘lsada, hanuzgacha insonlar qalbiga, dunyo hamjamiyatiga slogan jarohati to‘laqonli tuzalgani yo‘q. Bu “Baynalmilal urush” nomi bilan yuritilgan Afg‘on urushi edi. Afg‘on urushi insoniyat boshiga kata talafotlarni

keltirdi. Urush haqida bir necha ilmiy, publitsistik hamda badiiy asarlar yozildi. Ushbu urush fojealari o'zbek adiblarining qalbini ham chetlab o'tmadi.

Adabiyotlar tahlili

Bu mavzuda O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar"[1], Qo'chqor Norqobilning "Quyoshni kim uyg'otadi"[2], Abdurashid Normurodovning "Qonli yo'rgaklar"[3], Isoqjon Nishonovning "Afg'on shamoli"[4], Nabi Jaloliddinning „O'limning rangi“[5], Nabijon Hoshimovning "Afg'on fig'onlari yoxud tilmoch Samarqandiyning ko'rgan-kechirganlari"[6], Abdug'afur Iskandarning "Afg'on to'la fig'onim"[7] kabi asarlari ushbu mavzuda hikoyadan tortib roman-turkumlarigacha yozildi, bu asarlar tadqiqida bir necha ilmiy tadqiqotlar yozildi.

Tadqiqod metodologiyasi

Mazkur maqolada adabiy tahlilning zamonaviy usullari, xususan, badiiy asarni poetik tahlil qilish, sujet va konflikt nazariyasi, obrazlar tizimi hamda realistik-estetik yondashuvlar asos qilib olindi. Asosan D.Quronov, A.Rahimov kabi adabiyotshunos olimlarning ilmiy qarashlari asosida "Herirud faryodi" romanining syujet qurilishi va ziddiyatlar tizimi tahlil qilindi. Tadqiqot davomida birlamchi manba sifatida G'afur Po'latovning "Herirud faryodi" romani (2022-yil nashri), ikkilamchi manbalar sifatida esa adabiyotshunoslik bo'yicha ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar, boshqa urush mavzusidagi asarlar tahlil etildi.

Natijalar va ularning tahlili

Adib G'afur Po'latov qalamiga mansub "Herirud faryodi", "Bomiyon sirtmog'i", "Hindiqushdagi sharpalar" hamda "Pushtinlar xazinasi" asarlari ham mazkur afg'on urushi muammolariga bag'ishlangan. Shu romanlardan biri "Herirud faryodi" asari haqida suhbatlashsak. Asar dastlab 2005-yilda nashr etilgan[8], 2015-yilda "Jahon adabiyoti" jurnalida yilning eng yaxshi asari deb e'lon qilingan. 2019-yil "Звезда Востока" jurnalida rus tilida asarning bir necha

qismlari e'lon qilingan. 2021-yilda esa Amerika adabiyotshunoslari nigohiga tushgan va asar haqida "The American Journal of Science and Education Innovations" jurnalida yirik maqola e'lon qilinib, Amerikaning adabiy, ijtimoiy, ta'limni rivojlantirish jamoalariga roman mazmuni ma'lum qilindi. 2024-yilda esa "Qamar media" nashriyoti tomonidan asarning rus tilidagi to'liq kitobi kitobxonlarga havola etildi.

2005-2022-yillarda qayta ishlanib, to'ldirilib 7 marta nashr etildi. Hozirgi kunlarda esa asarni ingliz tilidagi variant ustida ishlar olib borilmoqda.

Mazkur romanning qolgan shu mavzudagi asarlardan farqi shuki, qolgan ko'plab afg'on urushi haqidagi asarlar urushda qatnashgan insonlardan eshitilib, stastik ma'lumotlarga tayangan holda yozilgan bo'lsa, yozuvchi bevosita urush ishtirokchisi bo'lib, asar voqealarini boshidan kechirgan. U urush atrofida emas, balki ichida bo'lganligi uchun asar voqealari real va haqqoniy (harbiy qism raqamlari, qismlar o'rtasidagi masofa va joylashuvigacha) tasvirlangan:

– Bu qism, – dedi u, – 101 gvardiyachi moto-o'qchi Hirot harbiy qismidir. Raqami – 51931. Bizdan o'n ikki kilometr narida Hirot shahri joylashgan. U afg'on konrevolutsion kuchlarning markazlaridan biri. Sizlarning ichlaringizdan qahramonlar chiqar, balkim sotqinlar ham, kimlardir, bir umr nogiron bo'lib qolar, kimrladir uyiga qaytmas, xullas, o'rtoq jangchilar, buni hayot deydilar. [8]

Muallif Hirot moto-o'qchi qismida boshidan kechirgan mudhish kunlarni badiiy ifodasi aks etgan harbiy-dala romani kirish hamda 22 bo'limdan iborat.

Obrazlar tizimi ham o'zgacha, romanlarda qahramonlar imi bilan yuritilsa, "Herirud faryodi" romanida qahramolar asosan laqablar bilan yuritiladi. Buning sababi esa harbiy xizmat va undagi tartib bilan bog'liq bo'lsa ajab emas.

Mo'g'ulbashara, Kirchi, Laylak, Moldavan, Ara, Chumar, "Усатый", Qo'miq, Chichik va h.k. [8]

Adbiyotshunos A.Rahimovning “O‘zbek romani poetikasi (sujet va konflikt)” nomli doktorlik dissertatsiyasida sujetning xronikal, konsentrik, retrospektiv, assotsiativ kabi tiplari mavjudligi ta’kidlanadi [9]. Ushbu sujet turlariga e’tibor qaratilsa, romanning asosiy voqealari xronikal sujet asosida sodir bo‘ladi yozuvchi oldingi voqealarni yodga olishi retrospektiv sujet asosida xayoliy hamda ichki kurashlari assotsiativ sujet tipida boradi.

Mana retrospektiv sujetga misol:

“Dekabr oyining oxirlari edi. Dalada sovuq urib bujmaygan qora ko’sakdan boshqa narsa yo‘q, uni sindirib chuvaymiz. Sovuq, izg‘irin, biroq daladamiz, biz yotgan maktabning bolalari ham dalada. Maktab isimaydi, ko‘rpalarimiz zax tortib ketganligidan oyog‘im og‘rib, bodim kuchaydi. O‘tib ketar desam, qayda, borgan sari og‘riq kuchayib chiday olmay qolayotgan edim....” [8]

Asarda sujetni maromiga keltirib berish bilan uni harakatga keltirib, qaysi yo‘nalish bo‘yicha harakat qilishini, bir joyda qotib qolmasligini ta’minlash zarur. Ana shunday unsurlardan biri bu badiiy asardagi beriluvchi to‘qnashuvlar, ziddiyatlar (konflikt)dir.

Konflikt (ziddiyat) asardagi personajlarning asar sujetida badiiy ifodasini topadigan o‘zaro to‘qnashuv va qarashlar, qahramon va muhit o‘rtasidagi yoki uning ruhiyatida kechuvchi ziddiyatlar, qaramaqarshiliklardir. [10]

Barchaga ma’lum bo‘lganidek konfliktning uch turi mavjud:

- 1) xarakterlararo konflikt;
- 2) qahramon va muhit o‘rtasidagi konflikt;
- 3) ichki(psixologik) konflikt.

Roman mavzusidan kelib chiqadigan bo‘lsak, asar qahramonlari tushib qolgan yangi va begona hudud hamda u yerdagi yerlik aholi o‘rtasidagi ziddiyatlar(Ayniqsa, bosh qahramon, tojik do‘sti, kapitan va afg‘on chol o‘rtasidagi suhbatda yaqqol namoyon bo‘ladi), harbiy intizom bo‘yicha ximatni ko‘proq o‘taganlar va yangi kelganlar (asar tili bilan aytganda “g‘o‘ralar”) o‘rtasidagi ziddiyatlar maromiga yetkazib tasvirlangan. Roman bosh qahramoni, qolganlar ham, albatta, afg‘on diyoriga o‘z xohishlari bilan kelmaganliklari uchun

ham ko‘p hollarda psixologik konflikt, ya‘ni ichki – o‘zlari bilan kurashlari ko‘zga tashlanadi:

“Yo‘lini davom ettirib BTR oldinga intiladi, meni esa xayollar yan og‘ushiga oladi. Darhaqiqat, biz nuima uchun bu tuproqqa kelganmiz? Qaysi g‘oya uchun kurashyapmiz? Kommunizm g‘oyalarini taraqqiyoti va dunyoqarashi o‘zgacha bo‘lgan Afg‘onistonda tatbiq qilsak bo‘ladimi?” [8]

Yuqorida ta‘kidlaganimizdak asar qahramoni, ya‘ni muallif ko‘rgan kechirganlarini real (haqqoniy) tasvirlab boradi, bu borada u urush sahnalarini ham “qog‘ozga o‘rab o‘tirmaydi”:

“Qirlik ortida daryo oqib o‘tar, murdalarni tepkilab o‘sha tomonga o‘tdik. Zalvorli, ipli botinkamiz qondan iflos bo‘ldi. Daryo bo‘yida ham o‘n-o‘n besh chog‘lik kishilar to‘planib turishar, bir ayol yerda cho‘zilib yotgan o‘spirin ustida dod-faryod chekar, turganlardan biri ayolni tinchitmoqchi bo‘lar, ammo ayol unga quloq solmas edi. To‘da daxshat ichida biz tomon qarab qolishdi.

Mergan avtomatchilar nishonni bexato urishdi. Bir zumda birorta ham tirik jon qolmadi. Hammasi qonga belanib yerga qulashdi. Najot istab daryoga otilganlarni esa suv qa‘riga tortib ketdi”. [8]

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, G‘afur Po‘latovning “Herirud faryodi” romani o‘zbek adabiyotida Afg‘on urushi mavzusini haqqoniy va chuqur yoritgan nodir asarlardan biridir. Asarning eng muhim jihati shundaki, u bevosita urushni boshidan kechirgan muallif tomonidan yozilgan bo‘lib, voqealar real hayotga asoslangan. Roman syujetining xronikal, retrospektiv va assotsiativ shakllarda rivojlanishi, obrazlar tizimining laqablar orqali ifodalanishi, konfliktlarning turli darajada yoritilishi – bularning barchasi asarning badiiy qiymatini oshiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Herirud faryodi” nafaqat urush fojealarini aks ettiradi, balki inson ruhiyatidagi ichki kechinmalar, qarama-qarshiliklar orqali jamiyat va inson o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ham teran ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hoshimov, O. (2015). *Tushda kechgan umrlar*. Toshkent: Meriyus.
2. Norqobil, Q. (2007). *Quyoshni kim uyg'otadi*. Toshkent: Sharq.
3. Normurodov, A. (1991). *Qonli yo'rgaklar*. Toshkent: O'zbekiston.
4. Nishonov, I. (2016). *Afg'on shamoli*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
5. Jaloliddin, N. (2021). *O'limning rangi*. Toshkent: G'afur G'ulom.
6. Hoshimov, N. (2015). *Afg'on fig'onlari yoxud tilmoch Samarqandiyning ko'rgan kechirganlari*. Toshkent: Tafakkur.
7. Iskandar, A. (2018). *Afg'on to'la fig'onim*. Toshkent: Muharrir.
8. Po'latov, G. (2022). *Herirud Faryodi*. Toshkent: Qamar media.
9. Rahimov, A. (1994). *O'zbek romani poetikasi (syujet va konflikt)*. Toshkent: G'afur G'ulom.
10. D.Quronov, Z. E. (2013). *Adabiyotshunoslik lug'ati*. Toshkent: Akademnashr.